

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAKIMOVA NARGIZA SUPXONOVNA

**BOSHLANG‘ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING
IJTIMOIY VA HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01– Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук по
педагогическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science
degree in Pedagogy**

Hakimova Nargiza Supxonovna

Boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish..... 5

Хакимова Наргиза Супхоновна

Совершенствование механизмов формирования социально-правовых компетенций учащихся начальных классов 21

Hakimova Nargiza Supxonovna

Improving the mechanisms of formation of social and legal competencies of students in primary school..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAKIMOVA NARGIZA SUPXONOVNA

**BOSHLANG‘ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING
IJTIMOIY VA HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01– Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PHD/Ped3473 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Dilova Nargiza Gaybullayevna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponenlar: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Nurullayeva Shaxlo O'ktamovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi ilmiy tashkilot: Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "29" 02 soat 12:00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-27-07; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz). Buxoro davlat universiteti, Bosh binosi, 201-xona

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-27-07; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).
273

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "11" 02 da tarqatildi
(2023-yil "11" 02 da 2 -raqamli reyestr bayonnomasi).



S.Q.Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.R.Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d (PhD) professor

H.O.Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy drayver sifatida tan olinib, dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "... bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish asosida o'quvchilar ijtimoiy-huquqiy ko'nikmalarga tayyor bo'lish"¹ masalasi dolzarb vazifa sifatida qayd etilmoqda. Ta'lim mazmuni va sifatini oshirishga qaratilgan xalqaro hujjatlar, xususan, Incheon deklaratsiyasi (Incheon declaration 2015), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum, 2000), Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Ming yillik deklaratsiyasida" (UN "Millennium Declaration", 2000) zamonaviy ta'lim yondashuvlarga tayanib, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni ijtimoiy va huquqiy kompetentli qilib tarbiyalashga doir tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyodagi ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari, ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini innovatsion yondashuvlar asosida ijtimoiy-huquqiy jihatdan bilimli, zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan muayyan ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan bilim berish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb muammo sanaladi. O'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy savodxonligini oshirishni kafolatlovchi innovatsion – integrativ usullarni qo'llashning pedagogik-psixologik jihatlarini aniqlash hamda savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda asosiy e'tiborni inson kapitali bo'lgan sifatli ta'limga qaratish, zamonaviy ta'lim-tarbiya berish orqali o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlash, jamoada ishlay olish hamda muloqot qilish ko'nikmalari², hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmondagi 20-, 41-, 42-maqsadlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160-son, 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 422-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, 2020-yil 15-maydagi "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-sonli qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

¹ Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 6 p. 26.P.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-y 20-dekabr.

belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yoʻnalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. O'quvchilarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida ularni odob-axloq me'yorlariga o'rgatishning ahamiyati Sharq mutafakkirlari al-Xorazmiy, al-Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, A.Fitrat, A.Avloniy, M.Behbudiylarning ma'naviy merosida o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda yosh avlodni odob-axloq me'yorlariga o'rgatish, ular onggida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini tarbiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarga o'rgatish, o'quvchilarning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar, faol fuqarolik pozitsiyasi va huquqiy madaniyatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari O.Musurmonova, N.Muslimov, M.Quronov, H.Boboyev, Sh.Mardonov, A.Saidov, G'.Ahmedov, H. Yo'ldoshev, R.Mahmudov, A.Rafikov, M.Abdullayevalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining huquqiy onggi va madaniyatini shakllantirish, ular orasida huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarning pedagogik aspektlarini o'rganish, o'quvchilarning jamiyatga faol kirishishlarini ta'minlovchi ijtimoiy omillar va ularning ahamiyati Y.Penkova, M.Bobnev, V.Brojik, Y.Lukasheva, A.Rafikov, Y.Golovchenko, P.Blonskiy, L.Vigotskiy, S.Danilov, A.Zimin, L.Zyubin, A.Nikitin, A.Mishkevich, A.Ostrovskiylar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan Kin Djon, Syuzan Tompson, Djeys Merill, Kerolayn Uilson, Eleanor Byord, Richard Sayerslarning tadqiqotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga amal qilishi, ijtimoiylashuv jarayoni, maktabda o'quvchi shaxsiy hayotini tashkil etish va boshqarish kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

O'rganilgan adabiyotlar tahlilidan ayonki, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini odob-axloq me'yorlari bilan tanishtirish, ular onggiga huquqiy madaniyat, ijtimoiy munosabatlar kabi tushunchalarni singdirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish sifatli ta'lim orqali amalga oshirilishi aniqlangan.

Bugungi globallashuv jarayonlari yoshlar oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, kreativ tafakkurni rivojlantirish, intellektual salohiyatni oshirish, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga kirisha olish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'ymoqda. Shu bois, 2020-2021-o'quv yilidan O'zbekiston Respublikasida «Tarbiya» fanini o'qitish bosqichma-bosqich joriy etilib, uning konsepsiyasida davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga

oshirish, o'quvchilarga odob-axloq me'yorlari haqida bilim berish, ularni ijtimoiy va huquqiy kompetentli qilib tarbiyalash hamda shaxsiy sifatlarni rivojlantirish vazifasi belgilab berildi. Ushbu vazifa tadqiqot ishimizni dolzarb pedagogik muammo sifatida tanlash va tadqiq etishga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'quvchilarning o'quv-biluv imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan vaziyatlarni loyihalash mexanizmlari" (2019-2022-yy) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf Tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang'ich sinf Tarbiya fani mazmunini tahlil qilish orqali milliy o'quv dasturining o'ziga xos afzalliklarini o'rganish va o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy, amaliy, innovatsion omillarini aniqlashtirish;

boshlang'ich sinf Tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya berish tizimining funksional modelini takomillashtirish;

tarbiya darsida maqsadning natijadorligini kafolatlovchi ijodiy-ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi baholash mezonlarni ishlab chiqish;

boshlang'ich sinf tarbiya darsida o'quvchilarning ijtimoiy - huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi innovatsion ta'lim muhitini yaratishga hamda inson fe'l-atvorini o'zgartirishga ijobiy ta'sir etishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang'ich sinf tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro, Qashqadaryo hamda Navoiy viloyatlari umumiy o'rta ta'lim maktablarining 458 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini boshlang'ich sinf tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning mazmuni, ustuvor tamoyillari, bosqichlari, shuningdek, samarali shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Maqsadga erishish va qo'yilgan vazifalar yechimini topish maqsadida pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, baholash, test, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik eksperiment, tadqiqot natijalariga matematik-statistik ishlov berish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

milliy o'quv dasturini o'zlashtirganlik darajasini belgilovchi malaka talablari

hamda mashg'ulotlarda bajargan topshiriqlarini baholovchi mezonlardan foydalanib, o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-innovatsion omillari ta'lim jarayonini noan'anaviy tarzda "yashirin operatsiya", "ijodiy desant", "ijodiy topshiriqlar almashinuvi", "maxsus topshiriq"lar asosida aniqlashtirilgan;

tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmini takomillashtirishning maqsaddan natijaga yo'naltirilgan modeli o'zlashtirishni ta'minlovchi interfaol metod va "Juftingni top", "Sirli hodisalar makoni", "Kelajak maktabi", "O'zimizni qanday tutamiz", "Qadriyatlar yarmarkasi", "Do'st tanlash"; "Aziz mehmon", "Ta'qiqlangan meva" kabi ijodiy-ta'limiy o'yinlarni kiritish orqali takomillashtirilgan;

o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning shakllantirilganlik darajasini aniqlovchi (ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni bilish, ularga amal qilish, hayotiy ko'nikmalarga egalik, shaxsiy fazilatlariga egalik) qoliplashtiruvchi (formativ) va jamlovchi (summativ) baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf Tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalar egallangan bilimlarni ta'limiy o'yinlar vositasida turli ta'lim shakllaridan foydalanib rivojlantirishni kafolatlovchi kooperativ ta'limning interfaol shakllari mazmuniga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

boshlang'ich sinf Tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy – huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmini takomillashtirishga doir diagnostik vositalar majmui ishlab chiqilgan; "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" darsligi nashr etilgan hamda o'quv jarayoniga tatbiq qilingan.

boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun faollik, ijodiylik, sheriklik (subyekt-subyektlik) muloqoti tamoyillariga asoslangan "Ta'qiqlangan meva", "O'zimizni qanday tutamiz", "Qadriyatlar", "Qadr-qimmatliklar yarmarkasi" kabi o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni bilish hamda ularga amal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar tizimi ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf Tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy – huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning reflektiv texnologiya va usullari hamda "Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning ahamiyati" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqilgan hamda o'quv jarayoniga tatbiq qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, tadqiqot natijalarini O'zbekiston Respublikasining umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv-tarbiya jarayonida sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarinig ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich ta'lim Tarbiya darsi jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy

va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlarini takomil-lashtirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligi, “ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalar”, “ijtimoiy va huquqiy kompetentlik”, “o‘z-o‘zini rivojlantirish”, “odob-axloq me‘yorlarga amal qilish”, “hayotiy ko‘nikmalar” kabi zaruriy tushunchalarning pedagogik-psixologik jihatdan izohlanganligi, hayot uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarning ahamiyati, o‘quvchilar ongida ijtimoiy-huquqiy bilimlarni shakllantirishga erishishda yuqori samaradorlikni ta‘minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning g‘oyalari va natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiya va metodlardan boshlang‘ich sinf Tarbiya fanidan o‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga erishishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang‘ich sinf Tarbiya fanidan o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy natijalar asosida:

milliy o‘quv dasturini o‘zlashtirganlik darajasini belgilovchi malaka talablari hamda mashg‘ulotlarda bajargan topshiriqlarini baholovchi mezonlardan foydalanib, o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-innovatsion omillari ta‘lim jarayonini noan‘anaviy tarzda “yashirin operatsiya”, “ijodiy desant”, “ijodiy topshiriqlar almashinuvi”, “maxsus topshiriq”larni joriy etishga oid taklif va tavsiyalar 5111700 - Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” nomli darsligi hamda “Umumiy pedagogika” nomli o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-son buyrug‘i, 106-248 hamda 2022-yil 25-noyabrdagi 388-son buyrug‘i, №388-113 guvohnomalar) (Nizomiy nomidagi TDPUning 2022-yil 16-dekabrda 02-07-4572/04-son dalolatnomasi). Natijada, boshlang‘ich sinf Tarbiya darsi jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishni ta‘minlovchi didaktik ta‘minotning sifatini oshirishga erishilgan;

tarbiya darsida o‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmini takomillashtirishning maqsaddan natijaga yo‘naltirilgan modeli o‘zlashtirishni ta‘minlovchi interfaol metod va “Quvnoq poyezd”, “Sirli hodisalar makoni”, “Kelajak maktabi”, “Bizning sinfimiz – Internet sayti”, “Avlodlarga xabar”, “Chuchmoma-konserti”, “Mini-teatr”; “Kosmik press-konferensiya” kabi ijodiy-ta‘limiy o‘yinlarni kiritishga oid tavsiyalaridan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil mart- noyabr oylaridagi “Buxoro”, “Assalom Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” ko‘rsatuvlarining ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 18-noyabrdagi 1/294-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu ko‘rsatuvlar mazmuni mukammalashuvi, amaliy tajribalar asosida dalillarga boy bo‘lishi, ilmiy-ommabopligi ta‘minlanishiga erishilgan;

o‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning shakllantirilganlik darajasini aniqlovchi (ijtimoiy-huquqiy me‘yorlarni bilish, ularga amal qilish,

hayotiy ko'nikmalarga egalik, shaxsiy fazilatlarga egalik) qoliplashtiruvchi (formativ) va jamlovchi (summativ) baholash mezonlaridan foydalanilgan. (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-son buyrug'i, 106-248 hamda 2022-yil 25-noyabrdagi 388-son buyrug'i, №388-113 guvohnomalar) (Nizomiy nomidagi TDPUning 2022-yil 16-dekabrdagi 02-07-4572/04-son dalolatnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotlar bilan ishlash kompetentligini oshirish orqali ularda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilgan.

boshlang'ich sinf Tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalar egallangan bilimlarni ta'limiy o'yinlar vositasida turli ta'lim shakllaridan foydalanib rivojlantirishni kafolatlovchi kooperativ ta'limning interfaol shakllari mazmuniga doir metodik tavsiyalardan Innovatsiya vazirligida tashkil etilgan tajriba-tadqiqot ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-yil 7-noyabrdagi 01-10/450-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf tarbiya darsida o'quvchilarning ijtimoiy - huquqiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodik qo'lanmalar yaratish va mazkur fanni o'qitish sifatini yanada oshirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 11 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning asosiy matni 129 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqotning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda boshlang'ich sinf Tarbiya darsida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya berishning pedagogik - psixologik asoslari, boshlang'ich sinf Tarbiya darsida o'quvchilarda ijtimoiy va

huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning o'ziga xos ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Xususan, tayanch kompetensiya turlari, zaruriy hayotiy ko'nikmalar, ayniqsa, globallashuv sharoitida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj, uning mazmun-mohiyati, shuningdek, boshlang'ich sinf Tarbiya darsi asosida o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga erishishning joriy holati tahlil qilingan.

Tarbiya fanidan boshlang'ich sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan minimal malaka talablari (A1, A1+), kompetensiyalar, baholash tartibi va o'quv dasturlarida har bir bosqich ma'naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqarolik, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o'z ichiga oladi. Bunda bola huquqlarini himoya qilish, uzluksiz ta'lim tizimiga «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish, o'quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma'naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy-huquqiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish, bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish kabi maqsadlarga darslikka qo'yilgan didaktik talablar asosida erishiladi. Shuni qayd etish kerakki, Tarbiya fanini o'qitish jarayonida turli interfaol metod, hamkorlikda o'qitish, muammoli ta'lim texnologiyalari, ijodiy-ta'limiy o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarni tarkib toptirish barobarida ularda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida belgilangan maqsadga erishishda asosiy e'tiborni "shaxs", "madaniyat", "qadriyat", "xulq-atvor", "huquq", "burch", "tarbiya" kabi tushunchalar hamda boshlang'ich odob-axloq me'yorlari mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratildi. Zero, ushbu tushunchalar o'zaro aloqador bo'lib, doimiy ravishda bir - birini to'ldirib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishdan oldin ularda mazkur tushunchalar haqidagi bilimlarini tarkib toptirish zarur.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy va huquqiy kompetenlik tushunchalariga quyidagicha ta'rif berishga harakat qildik: **ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish hamda qo'shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil eta olish; **huquqiy kompetentlik** esa davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy, majburiy, ijtimoiy normalarni bilish, ushbu normalarga amal qilgan holda ulardan to'g'ri foydalanish va shaxsiy hayotda qo'llay olish³.

Tarbiya fani asosida quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi:

Ma'naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi: odob-axloq (kiyinish, muomala, muloqot, jamoat joylarida o'zini tutish) madaniyatiga ega bo'lishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash va hurmat qilish, oila, jamiyat, Vatan oldidagi burch hamda mas'uliyatni anglashi va ularga rioya qilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy-madaniy an'analar, urf-odatlar, marosimlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, jamoatchilik ishlarida faol bo'lishi.

Mafkuraviy immunitetga ega bo'lish kompetensiyasi: yaxshi va yomon

³ Mualliflik yondashuvi

xatti-harakatlarni farqlay olishi, ularga nisbatan fikrini bayon eta olishi; yon-atroftida bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildira olishi, ilmlilik insonning yuksak ziynati ekanini anglay boshlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘rganish va bilish darajasi, faolligi, dunyoqarashi va fikrlay olish qobiliyatining rivojlanganligiga ko‘ra shartli ravishda ikki bosqichga ya’ni 1-2-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me‘yorlarni o‘rganish va ushbu tushunchalar haqidagi bilimlarga ega bo‘lish hamda 3-4-sinfda egallagan kompetensiyalarni hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish inobatga olinishi lozim.

Boshlang‘ich sinf Tarbiya fanini o‘qitish mazmuni sinflar kesimidagi belgilangan sohalar bo‘yicha o‘tiladigan o‘quv-mashg‘ulotlari asosida amalga oshiriladi. Quyida biz tadqiqot ishimizning tajriba – sinov jarayonida Tarbiya fani darsliklarida dastur asosidagi mavzularni o‘rganish va o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan dars tahlil qilindi. (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Boshlang‘ich sinf Tarbiya darsida bilimlarni o‘zlashtirish va ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish sohalari

1-sinf. 2020-y. (64 bet)	2-sinf. 2020-y. (80 bet)
1.Odob durdonalari 2.Birgalikda o‘qiymiz 3.Oila davrasida 4.Ijodiy faoliyat	1. O‘quvchilarni faollashtiradigan savol va topshiriqlar 2. Oila davrasida 3. Ijodiy faoliyat 4. Bilasizmi ? 5. Odob durdonalari
3-sinf. 2020-y. (94 bet)	4-sinf. 2020-y. (94 bet)
1. Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar 2. Oila davrasida 3. Ijodiy faoliyat 4. Birgalikda bajaramiz 5. Bilasizmi ? 6. Hikmat	1. Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar 2. Ijodiy faoliyat 3. Oila davrasida 4. Bilasizmi? 5. Mustaqil faoliyat 6. Hikmat

Yuqorida Tarbiya darsida o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, “odob durdonalari, birgalikda o‘qiymiz, oila davrasida, ijodiy faoliyat, o‘quvchilarni faollashtiradigan savol va topshiriqlar, hikmat, mustaqil faoliyat”, “aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar”, “birgalikda bajaramiz”, “bilasizmi?” kabi mavzular asosida o‘tiladigan mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish orqali ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga erishish ta’minlanadi.

Tadqiqotning tajriba – sinov jarayonida Tarbiya darsliklari dastur asosidagi mavzularni o‘rganish va o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan darsida: matn, she’r, rasmi topshiriqlar va o‘yin metodlarini tahlil qildik. Ushbu mavzular o‘z ichiga quyidagi

mazmuni oladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Boshlang'ich sinf tarbiya fanidan sinflar kesimida o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan mavzular mazmuni

Sinflar	Matn	She'r	Ijodiy faoliyatga oid topshiriqlar	Interfaol metodlar	Rasmi topshiriqlar
1-sinf	22 ta	1 ta	12 ta	7 ta	12 ta
2-sinf	40 ta	9 ta	22 ta	6 ta	15 ta
3-sinf	27 ta	1 ta	11 ta	13 ta	13 ta
4-sinf	33 ta	-	18 ta	15 ta	28 ta

Yuqorida boshlang'ich sinflar kesimida Tarbiya fani darsliklarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishga asoslangan o'quv dasturining mazmuni keltirilgan.

Tarbiya fani asosida o'quvchilarga tayanch kompetensiyalar tarkibidagi ijtimoiy va huquqiy ko'nikmalarni shakllantirishga oid materiallar juda ko'pligi aniqlandi. Mazkur mavzularni o'zlashtirish orqali o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga oid yangicha metodikaga nisbatan ehtiyoj mavjudligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida o'quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik ta'minoti”** deb nomlanib, unda boshlang'ich sinf Tarbiya darsida zamonaviy yondashuvlardan foydalanishning dolzarbligi, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni dars jarayonida maqsadli qo'llash natijasida o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari hamda ta'lim jarayoni mazmuniga bevosita va bilvosita aloqador subyektlarning o'zaro hamkorlik faoliyati asosida innovatsion ta'lim metodlarini tatbiq etish mazmuni yoritilgan.

Tarbiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida dars jarayonida zamonaviy yondashuvlarga asoslanib, o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar asosida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni tarkib toptirishga erishib boriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning tamoyillarini quyidagi tarzda izohlash mumkin:

Birinchi, o'quvchida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning mavjudligi uning umri davomidagi muvaffaqiyatli faoliyatini kafolatlaydi. Ikkinchi, o'quvchi hayotida shaxsiy harakatlarining yetarlicha tanloviga imkon yaratib, shaxsga xos bo'lgan ijtimoiy rollarni bajarish samaradorligini ta'minlaydi. Uchinchi, o'quvchining Vatanga, oilaga, insonlarga, tabiatga, qadriyatlarga nisbatan e'tiqodini hamda shaxslararo munosabatlarini rivojlantiradi. To'rtinchi, ijtimoiy va huquqiy kompetensiya ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, estetik qadriyatlar va o'z-o'zini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Beshinchi, o'quvchilarda ijtimoiy muhit, oilasi, mahallasidagi jamoaviy munosabatlar ham muhim rol o'ynaydi. Oltinchi, ta'lim muassasasidagi ochiq ijtimoiy-pedagogik tizim, sog'lom muhit, o'qituvchilarning kasbiy darajasi e'tiboga olinadi. Yettinchi, o'quvchilarning hayotiy qadriyatlarini aniqlash, ochiqlik,

bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibatlilik, axloqiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar, kasb tanlash motivlari, o'z-o'zini tarbiyalash, ijtimoiy harakatchanlik va faollik kabi omillar e'tiborga olinadi.

Biz Tarbiya darsini tashkil etishda quyidagi interfaol o'qitish shakllaridan foydalandik:

- o'qituvchi – o'quvchi (juftlikda ishlash);
- o'qituvchi-o'quvchilar guruhi (jamoada ishlash);
- o'quvchi- o'quvchi (juftlikda ishlash);
- o'quvchi - o'quvchilar guruhi (guruh yoki kichik guruhda ishlash)
- o'quvchilar-o'quvchilar guruhi (kichik guruhlarda ishlash)

Tarbiya darsida yuqorida keltirilgan ta'lim shakllaridan foydalanib, o'quvchilarda faollik, ijodkorlik, mehnatsevarlik, intiluvchanlik, bilimdonlik, tadqiqotchilik kabi sifatlarni shakllantiradigan hamda sheriklik (subyekt-subyektlik) muloqoti tamoyillariga asoslangan "Do'st tanlayman", "Ta'qiqlangan meva", "O'zimizni qanday tutamiz", "Qadriyatlar", "Qadr-qimmatliklar yarmarkasi" kabi o'quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan ta'limiy o'yinlardan foydalandik.


Milliy dastur asosida yaratilgan Tarbiya fanining bosh g'oyasida kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan o'quv dasturlari bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil etish asosida o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalar bilan birgalikda ularda mas'uliyat va moslashuvchanlik, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash, shaxslararo hamkorlik qilish, muammolarni aniqlash, yechimni topish, o'z-o'zini yo'naltirish, ijtimoiy mas'uliyat kabi ko'nikmalar shakllanadi. Bunday zamonaviy ta'lim-ta'lim berish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning vazifasi quyidagicha bo'ladi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Boshlang'ich sinf Tarbiya darsida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchining vazifasi

O'qituvchi	O'quvchi
o'quvchiga bilim bermaydi balki, unga bilim olishni o'rgatadi.	darsda olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'lay olish layoqat elementlarini egallaydi.
doimiy izlanishda bo'ladi, o'z ustida mustaqil ishlab, kasbiy kompetentligi, pedagogik mahoratini oshirib boradi, o'quv jarayonini tashkil etishda akmeologik yondashuvga asoslanadi.	hayotida duch keladigan muammoni ijobiy hal qilishni, mustaqil o'qib, o'rganishni, ishlashni, izlanishni, yangilik yaratishni, mantiqiy fikrlashga o'rganadi hamda raqobatbardosh kadr sifatida shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf Tarbiya darsida o'quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini ta'lim berish shakllari, interfaol metodlar, ijodiy-ta'limiy o'yinlar va turli ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali takomillashtirildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Boshlang'ich sinf Tarbiya darsida o'quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishning takomillashtirilgan modeli.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Boshlang‘ich sinf tarbiya darsida o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlari”** deb nomlanadi va unda olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi aniqlanib, anketa-so‘rovnoma ishlarining tahlili hamda olib borilgan tajriba-sinov ishlarining matematik statistik tahlili natijalari keltirilgan.

Biz boshlang‘ich sinf Tarbiya darsida o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini aniqlash maqsadida 2019-2022-yillarda Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 1-, 17-, 22-, 11-, 12-, 29-son, Buxoro tumanidagi 18- va 1-son Navoiy viloyati Navoiy shahar 11- va 12-sonli, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 2- va 22-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridan 458 nafar o‘quvchilar hamda ularning o‘qituvchilari ishtirok etdi. Tadqiqot ishi bo‘yicha o‘qituvchilarning umumiy tushunchalarini muayyan anketa savollariga javoblari orqali aniqlashga harakat qildik.

Tajriba-sinov ishlarida 5 ta yo‘nalish bo‘yicha turkum topshiriqlar tayyorlandi:

- ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar;
- o‘z huquq va majburiyatlarini bilish;
- umuminsoniy qadriyatlar, urf - odatlar, oilaga hurmat;
- jamoatchilik joylarida o‘zini tutish;
- hayot xavfsizligi qoidalarini bilish va unga rioya qilish.

Tarbiya darslari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me‘yorlarga hurmat hissini shakllantirishga yo‘naltirilgan muhim holatlarni tahlil qilish, respondent-o‘quvchilar faoliyatini bevosita kuzatish natijasida quyidagi mezonlar yordamida tajribadan avvalgi va keyingi vaziyatlarni obyektiv baholash mumkin degan fikrga kelindi.

Sinov uchun tavsiya etilgan maxsus dastur va metodik tavsiyalar bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy va huquqiy me‘yorlarga munosabati tajribadan avval va keyin ko‘rsatilgan mezonlar asosida aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali bo‘lgan metod hamda ijodiy-ta‘limiy o‘yinlar asosida darslar tashkil etildi va o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarning shakllanganligi ushbu mezonlar asosida baholandi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Boshlang‘ich bitiruvchi sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarning shakllanganligini baholash mezonlari

№	Mezonlar	Doim	Ba‘zida	Qisman	Umuman yo‘q
1	Turli vaziyatlarda atrofida qilargalarga e‘tiborli bo‘lish va ularni tinglay olishi.	22	20	22	36
2	Diqqatini mavzu va o‘qituvchiga qaratish.	24	19	21	39

№	Mezonlar	Doim	Ba'zida	Qisman	Umuman yo'q
3	Verbal va noverbal aloqalarni o'rnatish: o'z fikrini bildirish, qo'shimchalar kiritish, olqishlash, savollar berish.	21	21	22	34
4	Fakt va misollar keltirish orqali savollarga javob berish.	25	22	17	32
5	Vaziyatdan kelib chiqqan holda tegishli tarzda muloqotga kirisha olish.	23	19	22	35
6	O'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot turlarini tanlay olish.	20	23	21	37
7	Boshqalar fikrini hurmat qilishni namoyish eta olish.	24	21	19	33
8	Boshqalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot turlarini tanlay olish.	22	20	22	35
9	Boshqalarning o'z fikrlarini bildirishga imkon berish, fikrini bo'lmaslik.	18	23	23	34

Yuqoridagi 4-jadvalda boshlang'ich sinfni bitiruvchi o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarning shakllanganligi: turli vaziyatlarda atrofida qilarga e'tiborli bo'lish va ularni tinglay olish, diqqatini mavzu va o'qituvchiga qaratish, dalil va misollar keltirish orqali savollarga javob berish, vaziyatdan kelib chiqqan holda tegishli tarzda muloqotga kirisha olish, boshqalar fikrini hurmat qilishni namoyish eta olish, boshqalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'irlash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot turlarini tanlay olish kabi mezonlar asosida baholandi.

5-jadval

Respondent-o'quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarga egaliklari (ta'kidlovchi tajriba)

Tajriba bosqichi	Respondent-o'quvchilarning umumiy soni 458 nafar					
	Tajriba guruhlari 231 nafar			Nazorat guruhlari 227 nafar		
Ta'kidlovchi tajriba	Yuqori	O'rta	Quyi	Yuqori	O'rta	Quyi
		64	83	84	37	65

Yuqoridagi 5-jadvaldagi ko'rsatkichlar asoslovchi tajriba bosqichida tajriba va nazorat sinflaridagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar bo'yicha qiymatlarning bir-biridan deyarli farq qilmasligini, ta'kidlovchi tajriba yakunida esa o'zaro keskin farqlanishini ko'rsatdi. Student-Fisher metodi bo'yicha matematik-statistik tahlilni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topildi. Quyida matematik-statistik

tahlil jarayoni keltirilgan. Student-Fisher metodining shartlariga ko'ra, tahlilning dastlabki bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan ko'rsatkichlar tanlamalar sifatida belgilab olindi. Bunda tajriba guruhlar uchun belgilangan tanlanma 1 raqam bilan, nazorat guruhlar uchun belgilangan tanlanma esa 2 raqam bilan belgilandi. So'ngra belgilangan tanlamalar bo'yicha yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha variatsiya qatorlari hosil qilindi (6-jadvalga qarang).

6-jadval.


Tajriba va nazorat guruhlar uchun belgilangan tanlamalar ko'rsatkichlari

Tanlanmalar	Guruhlar	Ishtirokchilar soni	Yuqori	O'rta	Quyi
1-tanlanma	Tajriba	231 nafar	72	93	66
2-tanlanma	Nazorat	227 nafar	37	65	125

Tahlilning navbatdagi bosqichda yuqorida belgilangan tanlanmalarga mos keladigan diagramma hosil qilindi (2-rasmga qarang).

Diagramma grafiklari tajriba va nazorat sinflari uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda $M_T=5$ va $M_H=3$ ga tengligini, ya'ni ular orasidagi farq yetarli darajada (matematik nuqtayi nazardan $M_T > M_H$ ga teng) ekanligi ko'rsatadi. Bu holat ushbu tanlamalar uchun mos o'rtacha qiymatlar tajriba sinflarida nazorat sinflariga qaraganda o'quvchilar yuqori darajada ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni hurmat qilish hissiga ega bo'lishlari kerakligi borasidagi (ya'ni, $\bar{X} > \bar{Y}$) shartni qanoatlantira olganligi matematik-statistik tahlil asosida tasdiqlandi.

2-rasm.



2-rasm. O'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasi

Hosil bo'lgan qiymatlar tajriba-sinov ishlari samaradorligini baholovchi mezonning birdan hamda bilish darajasini baholash mezonining noldan kattaligi to'g'risidagi fikrning haqqoniyligini tasdiqladi. Shunday qilib, tadqiqot davrida Tarbiya darslari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-huquqiy

kompetensiyalarini shakllantirishga oid maxsus dastur va metodika g'oyaviy-nazariy, amaliy-metodik nuqtayi nazardan umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaliyotiga mos kelishi isbotlandi. Boshlang'ich sinf Tarbiya darsi asosida o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyasi asosida dars mashg'ulotlarini tashkil qilish bo'yicha tanlangan o'qitish metodikasi va yondashuvlar natijasida samaradorlik 13,8 % ni tashkil qildi.

XULOSALAR

1. Zamonaviy ta'limning ahamiyati o'quvchilarda faol ijtimoiylashuv ko'nikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish o'ziga xos ahamiyatga ega.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar o'quvchilar tafakkurini motivatsion va refleksiv ko'nikmalarga o'rgatish vositalari, shakllari, usul va yo'llarini belgilash asosida qaror topadi. Buning uchun o'qituvchidan ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy munosabatda hamda akmeologik yondashuvda bo'lish talab etiladi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan innovatsion metod hamda ijodiy-ta'limiy o'yinlar mazmunini tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilan bog'liq holda izohlash asosida ishlab chiqilgan, maqsaddan natijaga yo'naltirilgan izchillik va uzviylik xarakteriga ega funksional modelni ta'lim amaliyotiga tatbiq qilish o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmalarining shakllanishiga samarali ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilikning o'zaro hamkorligining tashkiliy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ta'lim komponentlarini kuchaytirish asosida o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish natijasida ularning faol ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

5. Tadqiqot davomida pedagogikaning kognitiv, madaniy, huquqiy kompetentlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalari darajasini baholash mezonlari o'quvchilar o'rtasida o'zaro sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltiradi.

6. O'quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda boshlang'ich sinflar o'qituvchilari alohida o'rin tutadilar. Ularning mashg'ulot va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirish hamda yuqori saviyada o'tkazishga nisbatan ijodiy yondashishlari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarga ega bo'lish imkoniyatini oshiradi.

Tadqiqot xulosalariga tayangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirish samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- boshlang'ich sinf Tarbiya fanini o'tishda amaliy tajribalarga alohida e'tibor qaratish, ya'ni imkoniyat darajasida mazkur darslarni sinf xonasida emas, mavzuga mos obyektlarda tashkil etish;

- Milliy o'quv dastur asosida yaratilgan Tarbiya fanlari dasturiga qo'shimcha ravishda "Mashq daftari" ishlab chiqish;

- boshlang'ich sinflarda Tarbiya fanidan dars beradigan o'qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etib, unda xorijiy tajribalarga asoslangan holda treninglar olib borish uchun dasturlar tayyorlash;

- Tarbiya darslari mazmuni asosida sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish orqali o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАКИМОВА НАРГИЗА СУПХОНОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ
СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА
УРОКАХ ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

13.00.01 – История педагогики. История педагогических учений

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Бухара – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим зарегистрирована под номером B2022.2.Phd/Ped3473 в Высшей Аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Бухарского государственного университета www.buxdu.uz и на Информационном образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziynet.uz)

Научный руководитель: **Дилова Наргиза Гайбуллаевна**
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
профессор

Официальные оппоненты: **Хамроев Алижон Рузикулович**
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Нуруллаева Шахло Уктамовна
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Ведущее учреждение: Наваийский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится “ ” 2023 года в “ ” часов на собрании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 по присуждению научных степеней при Бухарском государственном университете, (Адрес: 200118, город Бухара, Ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (0365) 221-29-14, факс (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz, Малый зал Бухарского государственного университета, 2-этаж, ауд. № 201.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под номером _____). (Адрес: 200118, город Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (0365) 221-29-14, факс (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Автореферат диссертации разослан “ ” 2023 года
(Протокол реестра № _____ от “ ” 2023 года).

С.К.Каххоров

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор педагогических наук,
профессор

А.Р.Жураев

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
профессор

Х.О.Жураев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор педагогических наук (DSc),
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В концепции международного образования, установленной большинством стран мира к 2030 году, признанной основным драйвером развития образования во всем мире в качестве актуальной задачи определено "... готовность учащихся к социально-правовым навыкам на основе усиления интереса к обучению, приобретения прочного фундамента знаний, развития творческого и критического мышления"¹. Опираясь на современные образовательные подходы в международных документах, направленных на повышение содержания и качества образования, в частности, в Инчхонской декларации (Incheon Declaration 2015), во Всемирном образовательном форуме (World Education Forum, 2000), в "Декларации тысячелетия" ООН (UN "Millennium Declaration", 2000), уделяется особое внимание исследованиям по формированию у учащихся начиная с начальных классов жизненных навыков, воспитанию у них социально-правовой компетентности. Во многих научно-исследовательских центрах мира, образовательных учреждениях актуальной проблемой является вопрос совершенствования механизмов предоставления учащимся начальных классов социально-правовых знаний на основе инновационных подходов, ориентированных на приобретение определенных навыков, необходимых для современного мира. Важное значение приобретает выявление педагогико-психологических аспектов применения инновационно – интегративных методов, гарантирующих повышение социально-правовой грамотности учащихся, а также развитие навыков грамотности. Важной стратегической задачей в нашей стране является привлечение внимания к качественному образованию с человеческим капиталом, развитие у учащихся навыков свободного и креативного мышления², умения работать в команде и общаться, социально-правовых компетенций, необходимых для жизни.

Данная диссертация в определенной степени служит для реализации задач, отраженных в целях 20, 41, 42 Указа Президента Республики Узбекистан № УП-60 "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы" от 28 января 2022 года, Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № ПКМ-3160 "О повышении эффективности духовно-просветительской работы и поднятии развития отрасли на новый уровень" от 28 июля 2017 года, № 422 "О мерах по поэтапному внедрению в практику предмета "Воспитание" в средних общеобразовательных учреждениях" от 6 июля 2020 года, Постановления Президента Республики Узбекистан № ПП-4884 "О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования" от 6 ноября 2020 года, Постановления №287 "О мерах по организации деятельности национальной

¹ Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 6 p. 26.P.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-y. 20-dekabr

системы развития профессиональных квалификаций, знаний и умений в Республике Узбекистан" от 15 мая 2020 года и других нормативно-правовых актах относительной данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. "Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства".

Степень изученности проблемы. Важность формирования у учащихся межличностных отношений, обучения их нормам нравственности в учебно-воспитательном процессе нашло отражение в духовном наследии таких восточных мыслителей Аль-Хорезми, Аль-Фергани, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Абу Наср Фараби, Фитрат, А.Авлоний и М.Бехбуди.

